



**ZAMONAVIY MEDIA MUHITIDA AXBOROT
MANIPULYATSIYASIDAN HIMOYALANISH HAMDA JAHON MEDIA
VA AXBOROT MAKONIDA RAQOBAT MUHITI.**

Turobjonova Gulchehraxon Nu'monjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Axborot manipulyatsiyasi - bu o'z manfaati yolida insonlarni aldaydigan, ularning zaifligi yoki ishonuvchanligidan foydalanadigan ularga ta'sir ortkazish usuli. Zamonaviy media makonida axborot manipulyatsiyasi jarayonlari, ularning jamiyat hayotiga ta'siri hamda ulardan himoyalaniş mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, global axborot makonida vujudga kelgan raqobat muhiti, uning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy axborot siyosatini mustahkamlash zaruriyati ilmiy nuqtai nazardan asoslab beradi*

Kalit so'zlar: *media, axborot manipulyatsiyasi, raqamli kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, axborot raqobati, axborot suvereniteti, fuqarolik jamiyati.*

Kirish

XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho'qqisiga yetgan asr. XXI asrda media sohasining jadal rivojlanishi insoniyatning axborot iste'moli madaniyatini tubdan orzgartirdi. Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasi rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida har bir shaxs axborot oqimining faol ishtirokchisiga aylandi. Biroq, bu jarayonlar bilan bir qatorda axborot manipulyatsiyasi, soxta xabarlar (feyk news) va axborot urushlari kabi salbiy hodisalar ham kuchayib bormoqda. Shu sababli zamonaviy media muhitida axborot xavfsizligi masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism



Axborot manipulyatsiyasi bu ma'lumotni maqsadli tarzdao'zgartirishyoki noto'g'ri talqin qilish orqali auditoriyaning fikrini boshqarish jarayonidin Axborot manipulyatsiyasiniibg asosiy shakllariga dezinformatsiya, misinformatsiya, propaganda, trol faoliyati va vizual manipulyatsiya kiradi. Bular auditoriyaning psixologik holatiga ta'sir qilib , ommaviy fikrni o'zgartirishda keng qo'llaniladi. Manipulyatsiyaoddiy ta'sir o'tkazish va ishontirishdan farq qiladi. Ta'sir o'tkazish odatda zararsiz deb hisoblanadi, chunki u ta'sir otkazilayotgan shaxsni ta'sirini qabul qilish yoki qilmaslik huquqini hurmat qiladi va ortiqcha majburlamaydi.

Ishontirish - boshqalarni odatda malum bir maqsad zampirida istalgan xatti-harakat tomon yo'naltira olishlik qobilyatidir. Ta'sir o'tkazish va ishontirish na salbiy va na ijobiydir.Manipulyatsiya usullari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar yo'lida keng qo llanilmoqda. Natijada jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarish holatlari kuzatilmoqda.

Zamonaviy media makonida axborot manipulyatsiyasidan himoyalanish uchun quyida ilmiy- amaloy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Mediasavodxonlikni rivojlantirish -manipulyatsiyaga qarshi eng samarali yo'l va u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Masalan,tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tekshirish , axborot etikasi va texnik savodxonlildir. Bular fuqarolarning axborot immunitetini kuchaytiradi.

2. Faktcheking tizimlarini joriy etish.

Faktcheking (inglizcha fakt-checking - ” faktlarni tekshirish) - bu axborotning ishonchliligini tekshirish fyolg'on yoki noto'g'ri malumotlarni aniqlash va haqiqatni tiklash jarayonidir. Faktcheking tizimlarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari: texnologik infratuzilma yaratish , professional faktchekerlar tayyorlashmedia tashkilotlarda faktcheking bo'limlarini tashkil etish , sun'iy intellektdan foydalanish , jamoatchilik bilan hamkorlik, huquqiy asoslarni kuchaytirish, xalqaro tajribani joriy etish.

3. Axborot siyosatini takomillashtirish .



Raqamli transformatsiya jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda axborot siyosatini takomillashtirish masalasi davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati uchun dolzarb hisoblanadi. Axborot siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari: huquqiy asoslarni mustahkamlash, axborot xavfsizligini kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida ochiqlikni ta'minlash, milliy media siyosatini modernizatdiya qilish, axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) rivojlantirish, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

4. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

Tanqidiy tafakkur bu insonning har qanday fikr, g'oya yoki axborotga nisbatan asosli, mantiqiy va tahliliy yondashishdir. U quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tahlil qilish, baholash, mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish, o'z fikrini asoslab himoya qilishdir. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish usullari: munozaralar va bahs- munozarali mashg'ulotlar o'tkazish, mediasavodxonlikni oshirish va faktcheking ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali inson nafaqat bilimli, balki fikrlovchi va ongli fuqaroga aylanadi.

Jahon media va axborot makonida bugungi kunda keskin raqobat muhiti kuzatilmoqda. Yirik global media korporatsiyalar, ijtimoiy platformalar va xalqaro axborot agentliklari o'z auditoriyasini kengaytirish uchun faol kurash olib bormoqda. Ushbu raqobat ko'p hollarda axborot urushi shaklida namoyon bolmoqda. O'zbekiston uchun bu jarayonda eng muhim vazifa - milliy axborot suverenitetini ta'minlash va raqobatbardosh media tizimini shakllantirishdir. Bu yo'lda raqamli jurnalistikani rivojlantirish f mahalliy axborot resurslarini qo'llab quvvatlash, hamda xalqaro maydonda ijobiy milliy imidjni mustahkamlash zarur

Qo'shimcha ilmiy tahlillar.

Bugungi global media makonida axborot oqimi keskin ortib, manipulyatsiya xavfi ham kuchaymoqda. Ipsos(2024) tadqiqotlariga ko'ra, internet foydalanuvchilarning 86 foizi soxta axborotga duch kelgan, ularning yarmi esa uni



haqiqat deb qabul qilgan. Yevropa Ittifoqi hisobotlarida esa aholining 80 foizdan ortig'i feyk xabarlarini demokratiyaga tahdid deb biladi.

Xulosa.

Zamonaviy media muhitidagi axborot oqimlari inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan qudratli vositaga aylangan . Axborot makonidagi raqobat endilikda faqat texnologiyalar emas, balki ishonch ,ong va qadriyatlar uchun kurash shaklida kechmoqda . Shu bois, axborot manipulyatsiyasidan himoyalash, axborot xavfsizligi tizimini kuchaytirish va mediasavodxonlikni rivojlantirish - barqaror va sog'lom axborot muhitini shakllantirishning asosiy omillaridir. Global axborot raqobatida

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qo'shqoroy X. Axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat. - Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
2. Karimov, R. Media savodxonlik asoslari. - Toshkent: O'zDJTU nashriyoti, 2020.
3. To'raqulov, B. Zamonaviy OAV va axborot siyosati. - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022.
4. Xabibullaev A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot madaniyati. - Toshkent: Turon Iqbol, 2019.
5. Mahmudov O. Ommaviy kommunikatsiya nazariyalari va media jarayonlari. - Toshkent: Akademnashr, 2020.